

Akademik Sayyora Rashidova “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti direktori, akademik Rashidova Sayyora Sharafovna “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.



O‘zbekistonning Inson huquqlari bo‘yicha birinchi vakili - Ombudsmani akademik S.Sh. Rashidova mazkur lavozimdagi 20 yillik faoliyati davomida inson huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilish, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirishga ko‘maklashish borasida ish olib bordi va insonlar hurmati va e‘tirofini qozondi.

Akademik Sayyora Rashidovani O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan tabriklaymiz va ularga sihat-salomatlik, uzoq-umr, mustahkam kuch-g‘ayrat, ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.